

O`QUVCHILAR ONGIGA MILLIY URF ODATLARIMIZ VA QADIIRYATLARIMIZNI SINGDIRISH.

QORAQALPOG`ISTON RESPUBLIKASI
NUKUS SHAXAR 46-IDUM PSIXOLOGI
BERDIMBETOV ISLAMBEK MURATBAEVICH

Annotatsiya: Muallif ushbu maqola orqali o`quvchi yoshlarni hozirgi kunda o`quvchilar ongiga milliy urf odatlarimiz va qadiiryatlarimizni singdirish, ularni o`zligimizning anglatuvchi his tuyg`ular bilan ulg`aytirish masalalari xaqida so`z yuritgan. Yoshlarni farovon hayotga yo`naltirishda har bir jarayon muhim hisoblanadi. Shu bois ham barcha birdek, birdamlik bilan harakat qilishi zarur.

Kalit so`zlar: Qadriyat, meros, oila, odat, an-ana.....

KIRISH

Bugungi kundagi turli zararli ta`sirlardan saqlanish, har qanday sharoitda ham xalqimizga azaldan xos bo`lgan milliy qiyofa, betakror fazilatlar egasi bo`lib qolishimizda qadimiy an`ana va qadriyatlarimizni asrab-avaylab, ularga amal qilib yashash o`ta muhim ahamiyat kasb etadi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo`lsa, uning joni va ruhi ma`naviyatdir. Biz yangi O`zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma`naviyat”, deb ta`kidlagan<sup>1</sup>. O`zbekistonda olib borilayotgan tub islohatlar mazmuni yosh avlodni ma`naviy yetuk, intellektual salohiyatli barkamol avlod qilib tarbiyalashga qaratilgan. Bgngi kunda, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma`naviy sohalaridagi islohatlar inson huquqi va erkinliklarini himoya qiluvchi demokratik jamiyatini barpo etishni ko`zda tutadi. Amalga oshirilayotgan o`zgarishlarning bosh maqsadi ham insonning moddiy va ma`naviy manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Bunday mashaqqatli murakkab yo`lda bizga doimo mash`ala bo`ladigan, yo`limizni charog`on yoritib turadigan ota-onalarimiz, bobolarimiz, ajdodlarimizning ibratli hayot saboqlari bor. Milliy qadriyatlarni tiklash, ma`naviyatni yuksaltirish, ayniqsa sharqona odob-ahloq an`analariga e`tiborni kuchaytirish shular jumlasidandir. Yurtimizda buyuk rejalar va bunyodkorlik ishlari tarixiy an`ana va tajribalarga asoslanib, aql-u idrok bilan amalga oshirilmoqda.

ASOSIY QISM

Har bir xalqning ta`lim –tarbiyaga oid an`analari borki, ular pedagogik fikr taraqqiyotiga xizmat qilib, bola tarbiyasi haqidagi tasavvur va qarashlarni ifodalaydi. Har bir ota-ona o`z farzandini barkamol bo`lishini istaydi. Shuning uchun ham

xalqimizda “Farzandlar kamoli – ota-ona jamoli” degan naql bor. Huddi mana shu narsa, ota-onalarning orzu-umidi ham, an’ana sifatida avlod-dan-avlodga o’tib keladi. Dunyodagi har bir millatning, shu jumladan, o’zbeklarning ham aqliy-ruhiy qiyofasi, ya’ni milliy mentaliteti, o’ziga xos tarixiy-etnik tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlari doirasida shakllangani bois, uning jamiyatda sodir bo’layotgan ijtimoiy-siyosiy hodisalar, tarixiy jarayonlarga bo’lgan munosabati ham turlicha bo’lishi shubhasiz. Zero, milliy o’ziga xosliklar uzoq tarixiy davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlar tabiiy geografik o’rnashuv, o’zaro etnomadaniy aloqalar, diniy mansubliklar asosida qaror topadi va aynan mana shular hamda xalqning ruhiy-psixologik qarashlari negizida qadimiy an’analar, urf-odatlar va marosimlar shakllanadi.

Hozirgi kunda Respublikamizda milliy qadriyatlarni o’rganish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Sababi boy milliy qadriyatlarimiz tarixini o’rganmay turib, ularning bugungi holatini tahlil qilish va kelajagi haqida fikr yuritish qiyindir. Kishining qurshab turgan cheksiz ko’p narsa va hodisalar, shu jumladan, milliy ma’naviyat ichidan ham, muayyan shaxs yoki ijtimoiy guruh, yoki konkret millat, yohud butun insoniyat uchun alohida ahamiyatga, qadrga ega bo’lganlari qadriyat deyiladi. Milliy qadriyat deb, muayyan xalqning rasm-rusumi, an’anasi, fazilatlar, axloq va odobi, yashash tarzi, bayramlari, shu xalqning aksariyat qismi tomonidan e’zozlanishga loyiq bo’lgan inshootlar, milliy kiyimlar, uy-ro’zg’or buyumlari, ro’zg’or tutishlari aytiladi. Masalan, O’zbeklarning mehnatsevarligi, mehmondo’stligi xushxulqligi va muloyimligi, g’ayratli va itoatgo’yligi, turli toifadagi odamlar bilan o’zaro inoqlashib ketishligi, kechirimlilik, mulohaza va tafakkur bilan ish ko’rishi, tinchliksevarligi o’zbek milliy qadriyatlari bo’lib hisoblanadi. Ma’naviy qadriyatlar – kishilar ma’naviy faoliyati mahsuli, bilishning murakkab jarayoni natijasida yuzaga kelgan bilim, qarash va malakalar samarasidir. Bu qadriyatlarni tariflash, oqibat natijada, insonning ruhiy ehtiyojlari, manfaatlari va faoliyat turlariga bog’liq.

Ma’naviylik bunday hollarda moddiylik-ka qarama-qarshi qo’yilmaydi. Aksincha, ular o’zaro bog’liqdirlar. Bularga misol qilib, turli-tuman bayramlar, milliy urf-odat va an’analar, chiroyli axloq va odoblar, musiqa, mo’yqalam ustasi ijodining mahsuli bo’lgan rasmlar, badiiy adabiyot va hokazolarni keltirsa bo’ladi. **Moddiy qadriyatlar** deb, kishilar moddiy ehtiyojlarini qondirib, o’ziga xos xususiyati va shakllariga ko’ra odamlarda alohida his-tuyg’u uyg’otuvchi moddiy narsalarga aytiladi. Ularga buyuk inshootlar, bog’ va hiyobonlar, antiqa uy ro’zg’or buyumlari, tarixiy buyumlar va shunga o’xshash narsalar kiradi. Ma’naviyat – kishilarning egallagan bilimlari va bu bilimlarning hayot tarziga aylanganlik darajasi; **qadriyat** - ma’lum bir shaxs yoki kishilar guruhida alohida ahamiyatga ega bo’lgan ma’naviyat turi; madaniyat - inson olgan bilimlarini hayotda qo’llayotganida boshqalarni zavqlantira olish holati; san’at-avvallari bo’lib o’tgan madaniyat turlaridan birini, shu kunda, sun’iy ravishda tiklab, odamlarda zavq uyg’otuvchi faoliyat turi bo’lsa,

madaniy va ma'naviy meros ajdodlar avlodlarga qoldirgan ma'naviyat hamda madaniyat ichidan millatning shu kuniga asqotib turgan qismiga aytiladi. Ota-bobolarimizning ummonday ma'naviy va madaniy xazinasidan bizga faqat bir qismigina yetib kelgan. Ularning ko'plari tarix sahifalarida qolib ketgan sababi, ular o'z vaqtida xizmatini bajarib bo'lib, bugungi kunimizga yaramay qolgan ular faqat ma'naviy va madaniy yodgorlik sifatida xotirlanadi. Misol uchun, millatimizning ko'rki bo'lgan paranji (yopinchiq) o'z davrida zo'r qadriyat bo'lgan. Ba'zilar paranji yopinishni madaniyat darajasiga ham olib chiqqanlar. Ammo, bu bizga meros bo'lib qolmadi. U millatimizning ma'naviy yodgorligi. Turli marosim va urf-odatlarimiz milliy asosga ega bo'lib, milliy madaniyatni tashkil etuvchi bo'laklardan biridir. Yoshlarni faollashtirishda milliy-ma'naviy merosdan foydalanish, ularni o'quvchilar ongiga singdirish, vatanimiz taraqqiyoti va istiqboliga zid bo'lgan yot qarashlar ta'siridan saqlash bilan jamiyatda insoniy fazilatlarni yanada kamol toptirishga xizmat qilishiga ishona olsak bo'ladi. Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol inson qilib tarbiyalash bugungi mustaqillikni mustahkamlash, rivojlantirish va takomillashtirish uchun zaruriy vazifadir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimovning quyidagi fikrlari ibratlidir: "... unib, o'sib kelayotgan yangi avlodning har tomonlama barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun bo'lib voyaga yetishi uchun keng jamoatchilik va aholimiz o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatimizni yuksak darajaga ko'tarishning ahamiyati beqiyosdir"¹. Zero, ma'naviy-axloqiy barkamollik yangi qurilayotgan huquqiy demokratik jamiyatning ravnaqiga samarali ta'sir qiladi

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. K.Hoshimov "Pedagogika tarixi antologiyasi" "O'qituvchi" T., 1999 y
2. O'.Asqarova, M.Xayitbayev, M.Nishonov "Pedagogika" T., "Talqin" 2008 y
3. O.Hasanboyeva "Oila pedagogikasi" T., "Aloqachi" 2007 yil
4. E.Xoliqov, M.Lafasov, M.Rustamov "Merosimiz ildizlari" T., "Ma'naviyat" 2008 yil.
5. A.Sirojiddinov, M.Lafasov "Yoshlarni intellektual salohiyatini oshirish" T., "O'zbekiston" 2008 yil.
6. Mamatkhalilovna K. N., Shahobidinovna A. S., Nematillaevna K. G. PEDAGOGICAL SCIENCES //The 8 th International scientific and practical conference—Eurasian scientific congress (August 9-11, 2020) Barca Academy Publishing, Barcelona, Spain. 2020. 370 p. – 2020. – C. 175.